

**BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA TANQIDIY FIKRLASHNI
SHAKLLANTIRISHNING AYRIM DOLZARB MASALALARI**

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy fikrlashni shakllantirishning pedagogik, psixologik va metodik jihatlari tahlil qilingan. Tadqiqotda Ennis, Fisher, Erden va Ruggiero nazariyalariga asoslanib, o'quvchilarda mustaqil fikrlash, tahlil qilish, dalillash va xulosa chiqarish ko'nikmalarini rivojlantirish yo'llari yoritilgan. Ayniqsa, ona tili va o'qish savodxonligi darslari misolida tanqidiy savollar, muhokama va matn tahlili orqali o'quvchilarda tafakkur mustaqilligi va ijodkorlikni oshirish samarali yondashuv sifatida ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: tanqidiy fikrlash, boshlang'ich ta'lim, mustaqil tafakkur, tahlil, dalillash, xulosa chiqarish, ijodiy fikrlash, o'qish savodxonligi, ona tili, metodika, muhokama, tafakkur mustaqilligi.

**НЕКОТОРЫЕ АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ ФОРМИРОВАНИЯ
КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ**

Аннотация. В статье анализируются педагогические, психологические и методические аспекты формирования критического мышления у учащихся начальной школы. В исследовании, основанном на теориях Энниса, Фишера, Эрдена и Руджеро, рассматриваются способы развития самостоятельности мышления, анализа, рассуждения и умозаключений у учащихся. В частности, на примере уроков родного языка и читательской грамотности критические вопросы, обсуждение и анализ текста показаны как эффективный подход к развитию самостоятельности мышления и творческих способностей учащихся.

Ключевые слова: критическое мышление, начальное образование, самостоятельность мышления, анализ, рассуждение, умозаключение, творческое мышление, читательская грамотность, родной язык, методика, обсуждение, самостоятельность мышления.

**SOME IMPORTANT ISSUES OF FORMING CRITICAL THINKING IN
PRIMARY GRADE STUDENTS**

Annotation. This article analyzes the pedagogical, psychological and methodological aspects of the formation of critical thinking in primary school students. The study, based on the theories of Ennis, Fisher, Erden and Ruggiero, highlights ways to develop independent thinking, analysis, reasoning and drawing conclusions in students. In particular, using the example of native language and reading literacy lessons, critical questions, discussion and text analysis are shown as an effective approach to increasing students' independence of thought and creativity.

Keywords: critical thinking, primary education, independent thinking, analysis, reasoning, drawing conclusions, creative thinking, reading literacy, native language, methodology, discussion, independence of thought.

Zamonaviy axborot texnologiyalari shiddat bilan rivojlanib borayotgan bugungi davrda maktab ta'limi bu shunchaki bilimlar berish emas balki har tomonlama yetuk ilmiy ziyoli yoshlarni tarbiyalash, hususan ularda mantiqiy fikrlashni shakllantirish, mustaqil fikrga ega bo'ladigan shaxsni tarbiyalashdan iboratdir. Aynan bu maqsadga erishish uchun eng dastlabki qadamlar

boshlang'ich ta'lim jarayonida tashlanishi hech kimga sir emas. Aynan shu bosqichda o'quvchilarda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish masalasi zamonaviy pedagogikaning dolzarb yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. "Tanqidiy fikrlash - bu o'z fikrlash jarayonimizni anglab, boshqalarning fikr yuritish usullarini inobatga olib, o'rganilganlarni amalda qo'llab, o'zimizni va atrofimizdagi voqealarni tushunishga qaratilgan faol va tartibli aqliy jarayondir". Ushbu ta'rifda keltirilganidek, boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning "nega?", "qanday?", "nimaga?" kabi savollar berishga o'rganishi, o'z fikrini dalillar bilan asoslay olishi, muammoli vaziyatlarda turli yechimlarni izlashga urinishi ularning tafakkur mustaqilligini shakllantiradi. Zamonaviy o'qituvchi uchun esa asosiy vazifa – tayyor javoblarni berish emas, balki o'quvchilarni o'ylashga, fikrlash jarayonini kuzatishga, xulosalar chiqarishga undovchi muhit yaratishdan iboratdir. Aynan shunday yondashuv boshlang'ich sinf o'quvchilarida fikrlash va tanqidiy tafakkur qilish imkoniyatini oshirishga xizmat qiladi.

Tanqidiy fikrlashni o'qitish, o'lchash va rivojlantirishga oid ilg'or nazariy yondashuvlardan Ennisning "mantiqiy asoslangan qaror qabul qilish" modeli, Fisher va Erden tomonidan ishlab chiqilgan fikrlash elementlari hamda intellektual fazilatlar tizimi tadqiqotning nazariy poydevorini tashkil etdi.

Boshlang'ich ta'lim bosqichi - shaxs tafakkurining shakllanishi uchun eng muhim davr hisoblanadi. Shu bosqichda o'quvchi tayyor fikrlarni yodlashdan ko'ra, ularni tahlil qilish, savol berish, o'z nuqtai nazarini dalil bilan asoslashni o'rganadi. Aynan maktab o'quvchilariga tanqidiy fikrlashni boshlang'ich sinfdan boshlab o'rgatish hozirgi zamonaviy ta'lim tizimida muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, o'quvchilariga tanqidiy fikrlashni o'rgatish ularni kelajak hayotga o'rgatish, ta'lim jarayoni va insonlar bilan muloqot jarayonlarida ongi yondashishiga zamon yaratadigan tafakkur qilish jarayonidir.

Aynan o'quvchilarga boshlang'ich sinfdan tanqidiy fikrlashni o'rgatish orqali uni shaxsiyatida quyidagilarni tizimli ravishda shakllantirishimiz mumkin.

Birinchidan, tanqidiy fikrlash orqali biz mustaqil tafakkur qiluvchi, o'z savollariga mustaqil javob topa oladigan ishonni tarbiyalashimiz mumkin. Bunda bolada fikrlash, tahlil qilish va xulosa chiqarish jarayonlarini shakllantirish uchun eng aslsoiy va boshlang'ich qadamlar tashlanadi. "Tanqidiy fikrlash - bu ma'lumotni ob'yektiv tahlil qilish va asosli xulosa chiqarish qobiliyatini anglatadi. Bu ma'lumotlar, faktlar, kuzatiladigan hodisalar va tadqiqot natijalari kabi manbalarni baholashni o'z ichiga oladi". O'quvchi darslar jarayonida hususan ona tili va o'qish savodxonligi darslari jarayonida ham aynan o'qituvchi aytganlarini faqat yodlash emas tayyor fikrlarni tuhsunish va tahlil qilish imkoniyatiga ularni mustaqil fikr egalari shklidiga tarbiyalash orqali gina erishish mumkin. Tadqiqotchi olim V.Ruggiero aytganidek, "Fikrlashni o'qitish har bir fanning ichiga singdirilgan bo'lishi kerak. Bu yangi ma'lumot kiritish emas, balki o'quvchilarga mustaqil xulosa chiqarish imkonini berishdir". Shuning uchun ham boshlang'ich ta'lim bosqichidayoq o'quvchilarni har bir darsda mustaqil o'ylashga, savol berishga va javob topishga o'rgatish muhim ahamiyat kasb etadi. Ana shundagina tanqidiy fikrlash nafaqat bilim olish vositasi, balki o'quvchining shaxsiy rivojlanish va hayotiy qaror qabul qilish madaniyatiga aylanishi mumkin.

Ikkinchidan, tanqidiy fikrlash orqali o'quvchilar to'g'ri va noto'g'ri fikrlarni bir-biridan ajrata oladi. Aynan ona-tili va dabiyoti darslarida bir turli matnlarni o'qib berish va undagi qahramonlar faoliyatiga doir o'quvchini o'ylashga majbur qiladigan savollar orqali ularni turli manbalardan -internet, televizor, telefon dan olinadigan materiallar va ularga tanqidiy ko'z bilan qarashlarini shakllantirishimiz mumkin. Aynan 3 -sinf Ona tili darsligida keltirilgan "Qovoqvoy nega hafa" deb nomlangan matnda ham o'quvchi o'z oldiga nega savolini qo'ya oladigan bir necha vaziyat bor. Qovoqboy kichkina bo'lgani uchun kuzda kunlar qisqarib tunlar uzayishi haqida bilmas ekan" jumlasida ham aynan nega bunday holat bo'ladi degan savolga o'quvchilardan tanqidiy fikrlash orqali javob berishlari so'ralsa ularda biz aytgan mustaqil fikrlash jarayoni amalga sohiriladi.

Uchinchidan, tanqidiy fikrlashni shakllantirishga o'qituvchilar tomonidan boshlang'ich sinflardan harakat qilinsih ularda o'qishga bo'lgan qiziqishni oshirishga xizmat qiladi. Masalan,

tanqidiy fikrlovchi bola darsni faqat “javob topish”, vazifa bajarib baho olish uchun emas, balki “nega shunday?”, “boshqacha bo‘lishi mumkinmi?” degan savollar bilan muntazam kuzatib boradi. Bu esa o‘quvchilarda tizimli ravishda rivojlanib borsa ularni kelajak hayotda mustaqil shaxs sifatida murakkab muammolarni ham yechimlarini topa oladigan shaxs sifatida yetishishiga xizmat qiladi. Masala 3 sinf Ona tili darsligi 1 kitobi 51-betida quyidagi parcha bor: “Bir kuni Alijon qo‘y boqib yurgan edi. Qirga chiqsa, qarg‘alar yong‘oq yeyishayotgan ekan. Alijon ularga kesak otadi. Qarg‘alar og‘zidagi yong‘oqlarni tashlab qochishadi. Birozdan so‘ng qarg‘alar yana yong‘oq yeyishni boshlaydi. Alijon yana kesak otadi. Qarg‘alarning jahli chiqib, unga hujum qilishadi. Alijon boshqa bunday qilmaydigan bo‘ldi”. Bu matnni agar o‘quvchi tanqidiy fikrlash orqali o‘rgansa nega Alijon qarg‘alarga tosh otdi, qarg‘alar yomon qush bo‘lganliklari uchunmi yoki o‘zi yomon bola bo‘lganligi uchunmi deya o‘z-o‘ziga savollarni beradi va unga o‘zicha javoblarni qidiradi va matnning oxirida endi u qarg‘alarga tosh otmaydigan bo‘ldi degan matn esa u ish noto‘g‘ri ish ekanligi va undan saqlanish lozimligi haqida tuhsucha berib o‘tadi.

To‘rtinchidan, o‘quvchida tanqidiy fikrlash orqali faqat “tanqid qilish” emas, balki turli nuqtai nazarlarni solishtirib, eng maqbul yechimni topish malakasini ham shakllantirish lozim bo‘ladi va bu jarayon bolaning ijodkorligini, moslashuvchan fikrlashini, muammolarni yechish ko‘nikmasini rivojlantiradi. Mashhur olim R. Ennisning fikricha “Tanqidiy fikrlash — bu insonni biror narsaga ishonish yoki ishonmaslikka olib keluvchi, reflektiv va mantiqiy fikrlash jarayonidir.”

Beshinchidan, tanqidiy fikrlovchi bola boshqalarning fikrini hurmat qiladi, lekin o‘z nuqtai nazarini ham asoslay olish qobiliyatiga ega bo‘ladi. Aynan bu holat o‘qituvchi tomonidan berilgan mavzularga doir savollarda u o‘z fikrini bayon etadi va boshqalarni fikrlarini ham diqqat bilan eshitadi. Darsdagi kichik bahslar, muhokamalar, savol-javoblar orqali u tinglashni, dalil bilan javob berishni, boshqalarning fikrini qadrlashni o‘rganadi. Bu esa jamiyatda faol fuqarolik xususiyatlarini shakllantiradi. Masalan 1-sinf o‘qish savodxonligi darsligining 2-qismida quyidagi matn keltiriladi “Yoz oxirlab borayotgan damlar. Osmon ko‘zguday tiniq, musaffo. Yetti yashar mitti Zahiriddin onasining yonidasida. Ona-bola o‘zaro suhbatlashadilar. Hozir farzandi derazadan ko‘kka boqib qolgan. U osmondagi uyum-uyum paxtani eslatuvchi bulutlarga javdirab qarardi. — Onajon, — dedi jajji Bobur, — bulutlarni qo‘l bilan ushlab bo‘ladimi?” hikoyani shu yeriga kelganda o‘qituvchi agar o‘quvchilarga bulutni tutish imkoni bormi deya savol bersa o‘quvchilar har kim o‘z javobini aytish bilan birgalikda boshqalarni ham qanday fikrlashini bilish uchun tinglashadi va hikoyaninig davomida esa muallifning javoblarini ham tinglashadi.

“Ona tili va o‘qish savodxonligi” darsida tanqidiy fikrlashni shakllantirish

Masalan, 2-sinf “O‘qish savodxonligi” darsida G‘iyos Komilovning “Ona sabog‘i” hikoyasi o‘qiladi. Oddiy o‘qishdan so‘ng o‘qituvchi bolalardan faqat mazmunni so‘ramaydi, balki tanqidiy fikrlashni rag‘batlantiruvchi savollar beradi: “Jajji Bobur nima uchun bulutlarni ushlamoqchi bo‘ldi?” “Onasi unga nima orqali tushuntirdi?”

“Agar sen Boburning o‘rnida bo‘lsang, qanday savol berarding?” “Bu hikoyadan qanday xulosa chiqardik?”. Shu savollar orqali bola matnni tahlil qiladi, sabab va natijani farqlaydi, o‘z fikrini asoslaydi, hatto hayotiy tajribasi bilan bog‘laydi. Bu jarayon tanqidiy fikrlashni shakllantiradi - bola o‘qilgan matnga passiv tomoshabin emas, faol ishtirokchi bo‘ladi.

Umuman olganda “Tanqidiy fikrlash - bilimni o‘zlashtirish va mustaqil fikrlashning yuqori darajadagi tarkibiy qismi bo‘lib, shaxsning voqea va hodisalarni obyektiv idrok etish imkoniyatini kengaytiradi. Unda tahlil, taqqoslash, izohlash, yangilik kiritish va muammolarni hal etishga alohida e‘tibor beriladi”. Ya‘ni, O‘qituvchi darsda tanqidiy savollar berish, matn tahlili, muhokama va dalillash mashqlaridan foydalansa, bolalar nafaqat bilimni egallaydi, balki uni mustaqil tahlil qilish, yangi g‘oyalar yaratish, fikr almashish madaniyatini ham o‘zlashtiradi. Shu orqali tanqidiy fikrlash o‘quvchining hayotiy tafakkur poydevoriga aylanadi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, boshlang‘ich sinfda tanqidiy fikrlashni o‘quvchilarda shakllantirish - bu o‘quvchini mustaqil fikrlovchi, tahlil qiluvchi va dalil asosida xulosa chiqaruvchi shaxs sifatida tarbiyalashning eng muhim bosqichi bo‘lish bilan birgalikda, o‘quvchilarda nafaqat bilimni chuqur o‘zlashtirish, balki uni hayotiy vaziyatlarda qo‘llay olish,

- 236 mustaqil qaror qabul qilish, boshqalar fikriga hurmat bilan yondashish kabi fazilatlarini ham rivojlantirishni zaruriy shartidir. Ayniqsa, ona tili va o'qish savodxonligi darslarida bu ko'nikmani rivojlantirish orqali bolalarda tahliliy, ijodiy va mantiqiy tafakkur uyg'onadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Cüceloğlu D. İyi düşün, doğru karar ver: etkili yaşamın temel boyutları üzerine Yakup Bey'le söyleşiler / Doğan Cüceloğlu. – İstanbul: Sistem Yayıncılık, 1995. – 344 s.
2. **Ennis, R.** *Critical Thinking Assessment // Theory Into Practice.* - 1993. - Vol. 32, No. 3. — P. 179–186.
3. **Fisher, A.** *Critical Thinking: An Introduction.* - New York: Cambridge University Press, 2001. - 232 p.
4. **Erden, M.** *Öğretmenlik Mesleğine Giriş.* - İstanbul: Alkım Yayınları, 1998. - 215 s.
5. **Pardaboyeva D. G'.** Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning nazariy asoslari // *European Journal of Academic Research (EJAR).* - 2024. - Vol. 4, Issue 7 (Special Issue). - P. 521–523. -ISSN 2181-2020. - DOI 10.5281/zenodo.13303491.
6. Ruggiero V. R. *Teaching Thinking Across the Curriculum.* - New York: Harper & Row, 1988. - 223 s.
7. 3 sinf Ona tili darsligi 1 qism 40 bet. Toshkent, 2023.
8. Ennis R. H. *Critical Thinking Assessment // Theory Into Practice.* - 1993. - Vol. 32, No. 3 (Summer). - Pp. 179–186.
9. 1-sinf O'qish savodxonligi darsligi. 2-qism 21-bet. Toshkent, 2024.
10. 1-sinf O'qish savodxonligidarsligi 2-qism 2- bet. Toshkent, 2024.
11. *Eshquvvatova X. F., 2025. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy fikrlashni shakllantirishning pedagogik ahamiyati // Inter Education & Global Study. -2025. - № 4. - B. 492.*